IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: FC12255493

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100011, Toshkent sh., Navoiy ko‘chasi, 4, tel.: (998 71) 241-08-95, 241-68-95,
www.ssv.uz, e-mail: info@ssv.uz, ssv@exat.uz

2026 yil “9”yanvar **02-28/616-son**

Vazirlik tasarrufidagi tibbiyot oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlar

Toshkent shahar sog‘liqni saqlash bosh boshqarmasi

Central Asian University

(ma’lumot uchun)

Central Asian University tomonidan 2026-yil 13-14-fevral kunlari Toshkent shahrida “Global Digital Health Summit’26” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy sammit o‘tkazish to‘g‘risida

KO‘RSATMA

1. 2026-yilning 13-14-fevral kunlari Toshkent shahrida “Global Digital Health Summit’26” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy sammit o‘tkazilsin.

2. Tadbir ishtirokchilari o‘rinlari taqsimoti ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Central Asian University rektori (K.Gulamov), Fan-ta’lim va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig‘i (O‘.Ismailov) anjumanga puxta tayyorgarlik ko‘rgan holda, belgilangan muddatda yuqori ilmiy va tashkiliy saviyada o‘tkazilishini ta’minlasin.

4. Central Asian University rektori K.Gulamovga:

sertifikatlarni tayyorlash va tadbir ishtirokchilarini o‘rnatilgan tartibda sertifikatlar bilan ta’minlash amalga oshirilsin;

tadbir tashkilotchilari Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi “Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 205-son qarori bilan tasdiqlangan hisobotni 3 kun muddat ichida vazirlikning Fan-ta’lim va innovatsiyalar boshqarmasiga taqdim etilishi ta’minlansin.

5. Tadbir ishini ommaviy axborot vositalari orqali yoritish Matbuot xizmati rahbari F.Sanayevga yuklatilsin.

6. Toshkent shahar sog‘liqni saqlash boshqarmasi boshlig‘i, tibbiyot oliy ta’lim muassasalari rektorlari, ilmiy markazlar direktorlari ilovaga muvofiq anjumanda o‘z vakillari qatnashishini ta’minlasin.

7. Ushbu ko‘rsatma xat ijrosining nazorati Fan-ta’lim va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig’i O‘.Ismailov zimmasiga yuklansin.

Vazirning birinchi o‘rinbosari  **A. Boboyev**

Ijrochi: D.Abdullayeva
Tel: +998712031519/130